

## O'ZBEK MILLIY KURASHINING PAYDO BO'LISHI VA TARAQQIYOTI

*Umirov Shodi Bobomurodovich, Termiz davlat muhandislik va  
agrotexnologiyalar universiteti "Ijtimoiy-gumanitar fanlar"  
kafedrası o'qituvchisi*

## ИСТОРИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ И ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ УЗБЕКСКОЙ НАЦИОНАЛЬНОЙ БОРЬБЫ "КУРАШ"

*Умиров Шоди Бобомуродович, преподаватель кафедры  
"Социально-гуманитарные науки" Термезского  
государственного университета инженерии и  
агротехнологий*

## ORIGIN AND DEVELOPMENT OF UZBEK NATIONAL WRESTLING

*Umirov Shodi Bobomurodovich, Lecturer at the Department of  
Social and Humanitarian Sciences Termez State University of  
Engineering and Agrotechnologies*



<https://orcid.org/0009-0006-6257-8440>

e-mail:

shodi.umirov@gmail.com



**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek xalqining boy madaniy merosi bo'lgan milliy kurashning kelib chiqishi, tarixiy ildizlari va rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. Muallif kurashning qadimgi davrlardan boshlab shakllanganini, u o'zbek xalqining jismoniy tarbiya, jasorat va milliy g'ururini aks ettiruvchi muhim omil ekanligini asoslaydi. Shuningdek, zamonaviy davrda kurashning xalqaro miqyosda tan olinish jarayoni va sport turi sifatida rivojlanishi haqida ham ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** o'zbek kurashi, milliy sport, an'anaviy meros, jismoniy tarbiya, kurash tarixi, madaniy qadriyatlar.

**Annotation:** This article explores the origins, historical roots, and stages of development of Uzbek national wrestling — kurash, which is an integral part of the cultural heritage of the Uzbek people. The author emphasizes the significance of kurash as a means of physical education, bravery, and national pride. The paper also highlights the modern development of kurash as an internationally recognized sport.

**Keywords:** Uzbek kurash, national sport, traditional heritage, physical training, history of wrestling, cultural values.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются происхождение, исторические корни и этапы развития узбекской национальной борьбы — кураш, которая является неотъемлемой частью культурного наследия узбекского народа. Автор обосновывает значимость кураша как средства физического воспитания, мужества и национальной гордости. Также анализируется современный этап развития кураша как признанного на международном уровне вида спорта.

**Ключевые слова:** *узбекский кураш, национальный спорт, традиционное наследие, физическое воспитание, история борьбы, культурные ценности.*

**KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).** Har bir xalqning tarixiy taraqqiyoti, madaniy merosi va urf-odatlarining uning milliy o'zligini belgilovchi muhim omillardandir. Ana shunday qadriyatlar ichida milliy sport turlari, ayniqsa, jismoniy tarbiya va harbiy tayyorgarlik bilan bog'liq an'anaviy musobaqalar alohida o'rin egallaydi. O'zbek xalqining uzoq asrlik tarixida shakllangan va bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan milliy sport turlaridan biri bu — kurash sanaladi. O'zbek milliy kurashi nafaqat sport turi, balki xalqimizning mardlik, matonat, sabr-toqat, adolatparvarlik kabi ezgu fazilatlarini o'zida mujassam etgan ijtimoiy-madaniy hodisadir. Kurash insoniyat tarixidagi eng qadimiy jismoniy mashqlardan biri bo'lib, u dastlabki ibtidoiy jamiyat davridayoq jismoniy kuch, chidamlilik va jasorat ko'rsatish vositasi sifatida paydo bo'lgan. O'zbekiston hududida kurash bilan bog'liq ilk tasviriy manbalar miloddan avvalgi asrlarga taalluqlidir. Jumladan, qadimgi Sug'd, Baqtriya, Xorazm va So'g'diyona hududlarida topilgan arxeologik topilmalar kurash unsurlarining qadim zamonlardayoq mavjud bo'lganini tasdiqlaydi. Shuningdek, o'zbek xalq og'zaki ijodida, xususan dostonlar va maqollarda kurash va kurashchilar alohida hurmat bilan tilga olingan.

**ADABIYOTLAR TAHLILI (АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ \ LITERATURE ANALYSIS).** Milliy kurash bo'yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar va amaliy ishlar ushbu sport turining tarixiy ildizlari, nazariy asoslari hamda texnik-taktik jihatlarini chuqur yoritib berishga xizmat qilmoqda. O'zbek milliy kurashi bo'yicha ilk mustaqil tadqiqotlardan biri bu — J.M.Nurshin, R.S.Salamov F.A.Karimov tomonidan 1993-yilda nashr etilgan "O'zbekcha milliy kurash" nomli qo'llanmadir. Mazkur asarda o'zbek milliy kurashining kelib chiqish tarixi, xalq orasida tutgan o'rni va shakllanish bosqichlari haqida muhim nazariy mulohazalar ilgari surilgan [2]. Kurashning xalqaro miqyosda ommalashuvi va qoidalari asosida rivojlanishiga bag'ishlangan muhim manbalardan

biri bu K.Yusupov tomonidan 2005-yilda yozilgan "International Kurash Rules, Techniques and Tactics" nomli qo'llanmadir. Unda kurashning xalqaro reglament bo'yicha o'tkazilishi, texnik va taktik usullar, hakamlik mezonlari, musobaqa formatlari batafsil bayon etilgan[3].

K.T.Yusupov tomonidan 1998-yilda yozilgan "Kurash musobaqalarining umumiy qoidalari" nomli uslubiy qo'llanma kurash bo'yicha musobaqalar tashkil etish, ularni o'tkazish tartibi va baholash mezonlari haqida muhim metodik ko'rsatmalarni o'z ichiga oladi. Ushbu asarda sport kurashining tashkiliy jihatlarini, musobaqalarda ishtirok etuvchi sportchilarning texnik tayyorgarligi, baholovchi hakamlarning roli va kurashchining musobaqaga psixologik tayyorgarligi kabi masalalar yoritilgan[4].

O'zbek milliy kurashi tarix davomida xalq o'yinlari, bayramlar, sayillar, to'y va marosimlar doirasida muhim ijtimoiy rol o'ynagan. Ayniqsa, Navro'z, Mustaqillik bayrami kabi umumxalq bayramlarida kurash musobaqalarining tashkil etilishi bu an'anani mustahkamlab kelgan. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda milliy merosni tiklash, uni asrash va rivojlantirish bo'yicha olib borilgan keng ko'lamli islohotlar doirasida kurash ham alohida e'tibor bilan rivojlantirila boshlandi. Kurash bo'yicha respublika va xalqaro miqyosda musobaqalar o'tkazilishi, kurash federatsiyalarining tashkil topishi, yangi avlod sportchilarning yetishib chiqishi bu sport turining bugungi taraqqiyotida muhim omillar bo'lib xizmat qilmoqda.

**MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION).** Kurash insoniyat tarixining qadimiy davrlaridanoq shakllangan bo'lib, o'zbek xalqining ham boy tarixiy-madaniy merosida muhim o'rin tutadi. Qadimgi Rim yozuvchisi Elian ma'lumotlariga ko'ra, saklar qabilasi orasida kurash musobaqalari keng tarqalgan bo'lib, bu holat xalq orasida sevimli odatga aylangan. Uning yozishicha, sak yigitlari faqat qiz bilan kurashda g'alaba qozongan taqdirdagina unga uylanish huquqiga ega bo'lganlar.

Arxeologik topilmalar ham kurash ajdodlarimiz orasida qadimiy odatlardan bo'lganini tasdiqlaydi. Masalan, qadimiy Jonbosqal'a qal'asining qazilmalarida kurash ikki asosiy qismga ajratilganligi aniqlangan. Professor S.P.Tolstoy ushbu tuzilmani ikki turdagi xalq jamoasi mavjud bo'lganining isboti sifatida baholaydi. Bu joyda Navro'z bayramida marosim xususiyatiga ega bo'lgan shaharliklar o'rtasidagi kurash odati bo'lgan[5]. Qadimiy solnomalarda keltirilishicha, Farg'ona vodiysida Navro'z bayrami munosabati bilan shahar ikki qismga bo'linib, har biri o'z kurashchilarini musobaqaga chiqargan. Arxeologik qazishmalar natijasida kurashchilarni tasvirlovchi haykalchalar topilgan. Masalan, miloddan avvalgi IV–III asrlarga oid Qo'yqirilganqal'adagi sharob qadahida jangchining tasviri topilgan. Miloddan avvalgi I asrda yashagan yunon tarixchisi Pompey Trog yozuvlarida hozirgi O'zbekiston hududida qadimda yashagan qabilalar kuchli kurashchilar, otliq kamonchilar va nayzabonlar bo'lgani qayd etiladi, ya'ni ular jang san'atida yetuk bo'lganlar[3].

Mashhur tarixchi, etnograf va tilshunos Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'otit turk" asarida polvonlarning belbog'dan ushlagan holda raqibning bo'ynini egib, oyoq tezligi va epchillik bilan g'alaba qozonganlarini ta'riflaydi. Qadimiy So'g'diyona markazi–Samarqandda Navro'z bayrami xalq tomoshalari bilan nishonlangan bo'lib, baxshilar, dostonchilar, sozandalar, dorbozlar ishtirok etgan. Shu kabi bayramlarda kurash deyarli marosim darajasida o'tkazilgan eng asosiy ko'ngilochar tomosha bo'lgan. Har yili musobaqalar natijasida eng kuchli kurashchi So'g'diyona polvoni degan unvonga sazovor bo'lgan va bayramda faxriy joyda o'tirib, istalgan raqib bilan kurashish imkoniga ega bo'lgan.

**NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).** Uzoq yillik an'anaga ko'ra, janglardan oldin har bir qo'shin eng kuchli polvonini oldinga chiqarar, ular qilich, nayza, kamon yoki o'q yordamida jang qilishar edi. Agar jang vaqtida qurollar ishdan chiqqan taqdirda, jangchilar ot ustida bir-birini tortib tushirib, oyoqosti qilishga urinib, qo'l jangi boshlanardi. Kim mag'lub bo'lsa, u tomon o'zini yengilgan deb hisoblagan. "Bir kishi

ham maydonda yovga bas kela oladi" degan naql aynan shunday tarixiy voqeliklardan kelib chiqqan. Bu kabi jang usullari qadimgi So'g'diyonada qon to'kilishining oldini olishga xizmat qilgan rasmiy an'ana bo'lgan[2].

Qadimgi yunon tarixchisi Kvint Kursiy Ruf yozishicha, Iskandar Zulqarnayn qo'shinlari Markaziy Osiyoni zabt etish vaqtida 30 nafar bahodirni asir olgan. O'lim kutayotganini bilgan bu jangchilar qo'rquv o'rniga qo'shiq aytib, raqsga tushgan, bu orqali jasorat va mardlikni namoyon qilgan. Iskandar ularning jasoratini qadrlab, hayotlarini saqlab qolgan. Yana bir rivoyatga ko'ra, arablar Samarqandga yaqinlashib, qal'a devorlarini yorib kirgan paytda, devor oldiga bir bahodir chiqib, butun bir qo'shin qarshisida turib, shaharga kirishlariga yo'l qo'ymagan. Uning ismi tarixda saqlanmagan bo'lsa-da, mingga yaqin dushmani bir o'zi yenggani, lekin oxir-oqibat tengsiz jangda halok bo'lgani aytiladi.

Ko'rinib turibdiki, qadimdan polvonlar xalq orasida jismoniy quvvat, chidamlilik, mardlik va olijanoblik fazilatlarini bilan ajralib turgan. Ular vatan himoyasi, adolatni qaror toptirishda muhim rol o'ynaganlar. O'tgan asrlar adabiyotida bunday bahodirlar siymosi keng tasvirlangan. Masalan, Firdavsiyning "Shohnoma" dostonida xalq bahodirlari ulug'lanib, yurtini bosqinchilardan himoya qilishga undov beriladi[4]. Ushbu faktlar shuni ko'rsatadiki, o'zbek kurashi nafaqat jismoniy kuchni, balki milliy o'zlik, axloqiy qadriyatlar va tarixiy tafakkurni o'zida mujassam etgan noyob merosdir. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin kurash davlat miqyosida e'tirof etildi. 1992-yilda O'zbekistonda Kurash federatsiyasi tashkil etilgan, 2001-yilda esa Kurash belbog'i federatsiyasi tuzildi. 1998-yil sentabr oyida Toshkent shahrida AQSh, Boliviya, Buyuk Britaniya, Niderlandiya, Rossiya, O'zbekiston, Yaponiya va boshqa davlatlarning 28 nafardan ortiq vakillari ishtirokida Xalqaro Kurash Assotsiatsiyasi (IKA) asos solindi. 1999-yilda Toshkent shahrida o'zbek kurashi bo'yicha birinchi jahon chempionati o'tkazildi, shuningdek, Rossiyaning Bryansk shahrida xalqaro ayollar turniri tashkil etildi. Hozirda dunyoning 100dan ortiq mamlakatida

kurash bo'yicha musobaqalar o'tkaziladi, kurash bo'yicha jahon va qit'a chempionatlari tashkil etilmoqda. 2003-yilda Toshkentda bo'lib o'tgan Xalqaro Kurash Assotsiatsiyasi (IKA) Kongressida kurash musobaqalarining rasmiy davomiyligi 3 daqiqa qilib belgilandi, bu esa har bir bahsning dinamik va faol bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi[2].

#### **XULOSA**

**(ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION).** O'zbek milliy kurashi – xalqimizning azaliy qadriyatlari, jismoniy madaniyati va ma'naviy merosining ajralmas qismidir. Uning ildizlari chuqur tarixiy qatlamlarga borib taqaladi va u qadimdan xalq orasida jasorat, mardlik, halollik va kuch timsoli sifatida e'tirof etib kelinadi. Tarixiy manbalar, arxeologik topilmalar, xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyot durdonalari kurashning nafaqat sport turi, balki ijtimoiy-madaniy fenomen sifatidagi ahamiyatini ko'rsatadi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kurash milliy sport turini rivojlantirish va ommalashtirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. 20.12.2024.
2. Nurshin J.M., Salamov R.S., Karimov F.A.- O'zbekcha milliy kurashi.-Toshkent.1993.-85 b.
3. Yusupov K. Interational kurash rules techiques and tactics. – Toshkent. 2005.
4. Yusupov K.T. Kurash musobaqalarining umumiy qoidalari. – Toshkent. 1998.
5. Yusupov N.T., Karimov F.A. Kurash uchun harakatli o'yinlar. – Toshkent. 2005. – 72 b.

